

Bieger T. *Innovation in tourism-creating customer value: 55<sup>th</sup> congress 2005, Brainerd, USA; Krugman P. Competitiveness: a Dangerous obsession. In: Competitiveness. An International Economics Reader. – N.Y.: Foreign Affairs, 1994, P. 1-17; Bordas E. Competitiveness of Tourist Destinations in long distance markets. The Economics of Tourism Destinations. Burlington: Elsevier, 1994; Crouch J. & Ritchie B. The competitive destination- a sustainable tourism perspective. – Cambridge: CabiPublishing, 2003; Портнер М. Конкуренция. – М.: Вильяме, 2000. С. 174-191.*

4. *Hotel Development Tendencies in the Russian Federation, Elena Yurievna Nikolskaya, Leonid Alekseevich Popov, Ivan Petrovich Kulgachev, Ekaterina Arturovna Blinova, Marat Venerovich Arifullin. Opcion, Año 35, № Especial 20 (2019):2899-2921 ISSN 1012-1587/ISSN: 2477-9385.*

5. *Nikolskaya E.Y., Kovaleva N.I., Uspenskaya M.E., Makshakova N.I., Lysoivanenko E.N. & Lebedev K.A. (2018). Innovative quality improvements in hotel services, European Research Studies Journal, 21(2).*

6. *Malenko, Valeria Pavlivna. Modern tendencies of hotel and restaurant business development. 2018.*

7. *Chepurda H.M. Doctor of Historical Sciences, Professor, Tourism, Hotel and Restaurant Business Department Chair Yurchenko S.O., fifth year student, specialty «Tourism» Cherkasy State Technological University. 2019.*

8. *Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. – 386 б.; Пўлатов М.Э., Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.; Тухлиев И. Туризм асослари. – Самарқанд: СамИСИ, 2010. – 271 б.; Тухлиев И., Кудратов Ф., Пардаев М. Туризмни режалаштириш. Дарслик. – Т.: Иқтисод ва молия, 2008. – 262 б.; Болтабоев М.Р., Тухлиев И.С., Сафаров Б.Ш., Абдухамидов С.А. Туризм: назария ва амалиёт. Электрон дарслик. – Т., 2017. – 74 б.; Мухаммедов М. ва бошқалар. Минтақа иқтисодиётининг замонавий муаммолари. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2020; Алимова М.Т. Ҳудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. // Иқт. фан. докторлик диссертацияси автoreферати. – Самарқанд: СамИСИ, 2017. – 96 б.*

9. *Пўлатов М.Э., Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В.Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.*

10. *Tuxliyev I. Turizm asoslari. – Samarqand: SamISI, 2010. – 271 b.*

11. *Tuxliyev I., Qudratov F., Pardayev M. Turizmni rejalaشتirish. Darslik. – T.: Iqtisod va moliya, 2008. - 262 b.*

12. *Boltaboyev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Elektron darslik. – T., 2017. – 74 b.*

13. *Muxammedov M. va boshqalar. Mintaqal iqtisodiyotining zamonaviy muammolari. Monografiya. – Т.: LESSON RRESS, 2020.*

14. *Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. // Iqt. fan. doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2017. – 96 b.; Канторович Л.В. Математические методы организации планирования производства. // – Ленинград: Издание Ленинградского государственного университета, 1939.*

15. <https://uzbektourism.uz/news>

16. *O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari, http://stat.uz*

17. <https://www.rbasia.uz/>

18. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>

19. *Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.*



### МЕХМОНХОНА ВА УМУМИЙ ОВКАТЛАНISH КОРХОНАЛАРИ FAOLIYATINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR



[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a39](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a39)

**Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich,**  
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
i.f.d. PhD

**Annotatsiya.** Maqolada mehmonxona va umumiyy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirishni ekonometrik tadqiq etishning zamonaviy uslubiy yondashuvlari bilan bog'liq muhim jihatlar bayon etilgan. Xususan, yashash joy va umumiyy ovqatlanish korxonalar faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko'rsatkichlarning guruhlangan tizimi, korxonalar faoliyatini tahlil qilish tasnifining mezonlar bo'yicha ssenariysi, rivojlantirishning sinergetik omillar to'plamini shakllantirish sxemasi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** ekonometrik model, mehmonxona va umumiyy ovqatlanish, kompleks iqtisodiy tahlil, ko'rsatkichlar tizimi, sinergetik omillar, tahlillash tasnifining mezonlari.

## СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ГОСТИНИЧНОГО И РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА

**Рахимов Абдиҳаким Мухаммадиевич**

Д.э.н. PhD Каршинского инженерно-экономического института

**Аннотация.** В статье описаны современные методические подходы к обоснованию эконометрического обеспечения развития продовольственного обеспечения и общественного питания. В частности, предложена сгруппированная система показателей комплексного экономического анализа деятельности предприятий проживания и общественного питания, сценарий классификации деятельности предприятий по критериям, схема формирования совокупности синергетических факторов развития.

**Ключевые слова:** эконометрическая модель, отель и питание, комплексный экономический анализ, система показателей, синергетические факторы, критерии классификации анализа.

### MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN ECONOMETRIC MODELING OF HOTEL AND CATERING ENTERPRISES

**Rahimov Abdihakim Muhammadiyevich**

*Karshi Institute of Engineering and Economics*

*PhD in economics*

**Annotation.** The article describes the modern methodological approaches of establishing econometric provision of food and general catering services development. In particular, a grouped system of indicators for a comprehensive economic analysis of the activities of residential and catering enterprises, a scenario for classifying the activities of enterprises according to criteria, and a scheme for the formation of a set of synergistic development factors are proposed.

**Key words:** econometric model, hotel and catering, complex economic analysis, system of indicators, synergistic factors, analysis classification criteria.

**Kirish.** Dunyo tajribasida xizmatlar tarmoq'ini rivojlantirish va boshqaruvin mehanizmlarini takomillashtirishning o'ziga xos jihatlarini ekonometrik modelllashtirish jarayonida qator masalalar tizimli o'rganilgan [1]. Kishilik jamiyatining bugungi rivojlanish holati bir qancha o'ziga xos rivojlanish bosqichlarining natijasidir. Bu bosqichlarning o'ziga xosligi iqtisodiyot sektorlarida qaysidir tarmoqning yoki ma'lum turdag'i tarmoqlarning rivojlanishidagi tub burilishlarga asoslanadi. Dunyo aholisining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotida xizmatlar tarmog'ining roli ortib bormoqda. Bu esa jamiyatning bugungi va kelajakdagi rivojlanish darajasi bevosita xizmatlar sohasining rivoji bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda xizmatlar, xususan, mehmonxona va umumi ovqatlanish xizmatlari sohasining rivojiga alohida e'tibor kuchaymoqda. Bunga sabab aholi turmush tarzini yaxshilash, yurtimiz turizim salohiyatini oshirish, zamonaviy qishloq va shahar infratuzilmasini shakllantirish, bandlik darajasini oshirish kabi umumi holda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar samaradorli-

gini oshirishdagi mazkur tarmoqning katta ahamiyatga egaligidir. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xizmatlar sohasini rivojlantirishga ham alohida urg'u berilgan, jumladan, 34-maqсад [2] tarkibida shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy, keytering kabi xizmatlarni ko'rsatish punktlari, yo'lbo'yи xizmatlarini rivojlantirish ham ifodalan-gan. Shuningdek, aholi turmush tarzini yaxshilashning maxsus dasturlarini joriy qilish, respublika hududlarining turizim salohiyatini oshirishni mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish hamda umumi ovqatlanish xizmatini rivojlantirish mehanizmlarining takomillashtirilishi, sohada xizmat ko'rsatish subyektlarining faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qo'shimcha imtiyozlar berishga bog'liq holda amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish tamoyiliga tayangan bugungi innovatsion rivojlantirish sharoitida mehmonxona va umumi ovqatlanish tarmog'iga yangi usullar, innovatsion texnologiyalarni kiritish, mavjud hududiy iqtisodiy salohiyatdan optimal foydalanish asosida rivojla-

nishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ekonometrik tadqiqotlarga ustuvorlik berilmoqda.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

A.S.Mattila, I.Y.Lin ilmiy asarlarida restoranlar faoliyatining istiqboldagi rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash va rivojlantirish omillarini tadqiq etishga katta e'tibor qaratilgan [4].

Xalqaro iqtisodiy xavf mavjud bo'lgan sharoitda mazkur xizmatlar sohasining muammolarini ko'p omilli tadqiq etishda ekonometrik modellarning ahamiyati to'g'risida xorijlik olim Filip Kotlerning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. U modellashtirish jarayonida innovatsion rivojlanish omillaridan keng foydalangan [5].

Stefan Mak, Violetta Vilk, Klara Lamberd tomonidan [6] mehmonxona va restoranlarning zamonaviy faoliyati, jumladan, xizmat ko'rsatishni rivojlantirishda internet va lokal tarmoqlardan foydalanish bilan bog'liq omilli tahlillar keltirilgan.

Jarayonda aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish tarmog'ini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun omilli yondashuv tamoyiliga asoslandik. Omilli yondashuv tamoyilining iqtisodiy-ijtimoiy tizimlarni boshqarish va rivojlantirishni modellashtirishdagi ahamiyati to'g'risida metodolik olimlarning alohida e'tirofi mavjud. I.D.Voronina va Y.A.Yegorovning fikricha, "omilli yondashuv tadqiqot obyekti obyektiv sonli ifodaga ega bo'lmanan ijtimoiy tarmoqlarga ega bo'lgan yaxlit tizimni tadqiq etishning eng samarador usulidir" [16].

S.Limariye va S.Marettining fikricha [17], "omilli yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonni qamrovli tahlil etishga keng imkoniyat yaratuvchi tamoyildir".

Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari xalqimizning ko'p asrlik tajribasi, madaniy-ma'naviy xarakterining yuksalishi asosida rivojlangan, aholi turmush hayotining ajralmas bir qimiga aylangan real voqelikdir. Bu reallik olimlar tomonidan mazkur sohaning tavsiflanishi ham o'z aksini topadi. Odatta, mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari iqtisodiyot tarmog'i sifatida umumiy nom bilan yuritsada, aslida bu tarmoq, bir-birini to'ldiruvchi holida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil tarmoqlardan tashkil topgan. Shu sababli xizmat sohasi alohida tarmoqlar bo'yicha ta'riflanadi. Xususan, rasmiy hujjalarda mehmonxona xizmatlarining "joylashtirish vositasi, ya'ni mehmonxonalar, turizm bazalari va majmualari, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, xostellar, oilaviy mehmon uylari, o'tov va palatkali oromgohlar, sanatoriylar va mehmonxona xizmatlari - vaqtinchalik yashash xizmat-

larini ko'rsatadigan boshqa obyektlar, shuningdek, tunash uchun qayta jihozlangan yerusti transportida vaqtinchalik yashash joyi berish bo'yicha xizmatlar majmuyi" sifatida ta'rifi keltiriladi. Shuningdek, manbalarda "mehmonxona uyidan tashqaridagi odamlarga kompleks xizmatlar ko'rsatuvchi korxona bo'lib, ular orasida joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari teng darajada muhim (kompleks hosil qiluvchi) xizmatlari" deb ta'riflanadi. Ushbu ta'rifdan joylashtirish va ovqatlanish xizmatlarining bitta mehmonxona xizmati tarkibiga kiritilishi kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, fikrimizcha, umumi ovqatlanish xizmati alohida xususiyatlanganligi uchun uning ta'rifi ham yashash joy xizmatiga bog'liq bo'l-magan holda keltirilishi tabiiydir [3, 4].

Xorijlik olim S.Meek, V.Wilk & C.Lambert ilmiy tadqiqotlarida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish bosqichlarining ma'lum mezonlarini keltirib o'tadi. Uning tadqiqot natijalari sifatida iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish jarayonlarda ko'p qo'llaniladigan global modellarning ko'p bosqichli modellashtirish bo'yicha kamchiliklari, ularni bartaraf etish bo'yicha ekonometrik mezonlarni to'g'ri o'rnatish yondashuvi asoslab berilgan [7].

O'zbek olimlari M.T.Aliyeva o'zining xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bosqichlarining ma'lum mezonlarini keltirib o'tadi, faoliyat maqsad vazifalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum bir mezonlar asosida olib boriladi [10].

Manbalarda ovqatlanish xizmatining turli ta'riflari keltiriladi. Xususan, "ovqatlanish xizmatlari aholining ovqatlanishga bo'lgan o'sib bora-yotgan ehtiyojidan kelib chiqadigan mijozlarga ko'rsatiladigan ovqatlanishni tashkil etish uchun xizmatlar sifati darajasi va o'ziga xos belgilarni mujassamlashtirgan holda ularning qoniqishini ifodalovchi servis faoliyat turi hisoblanadi" [5] yoki "umumiy ovqatlanish - xalq xo'jaligining ilmiy-gigiyenik talablar asosida taomlar tayyorlab sotadigan va iste'molchilarga xizmat ko'rsatadigan sohasi. Umumiy ovqatlanish sohasiga yarim-tayyor oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlaydigan fabrikalar, oshxonalar, restoranlar, choyxonalar, qahvaxonalar, bufetlar, yemakxonalar, gazakxonalar va shu kabilar kiradi" [6] kabilar shular jumlasidandir.

Nazariy o'rganishlarimiz asosida mazkur xizmatlar tarmog'ining quyidagi ta'rifini taklif etamiz: "Yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmati bir-birini qisman to'ldiruvchi, turlicha vazifalangan mustaqil tarmoqlarning birlashmasi bo'lib, madaniy hordiq yoki majburiyat yuzasidan vaqtinchalik yashash joyiga yoki ovqatlanish

ehtiyoji mavjud iste'molchilarga xizmatlar va ishlab chiqarish faoliyatir. Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari korxonalarining tipologiyasi bo'yicha manbalarda joylashtirish obyektlarining, asosan, 12 turi[7], ovqatlantirish obyektlarining 9 turi keltiriladi [8]. Mehmonxonalar faoliyatiga oid statistikani yurituvchi xalqaro tashkilotlar (Hoteltechreport va hokazo) asosiy samadorlik ko'rsatkichlari sifatida xalqaro standart darajasida ADR (Average Daily Rate) va RevPAR (Revenue Per Available Room) kabi ko'rsatkichlarni keltiradi[9]. Xuddi shu kabi umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatining ham o'ziga xos ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, korxonalar faoliyatining kompleks iqtisodiy tahlili uchun ko'rsatkichlar tizimi sakkizta asosiy guruhga ajratiladi (1-rasm).

Xizmat ko'rsatish korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, faoliyat maqsad-vazifalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum bir mezonlar asosida olib boriladi. Jumladan, yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tarmoq bo'yicha tahlil; iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishgacha bo'lgan boshqaruv qarorlari, faoliyatni rejalashtirish funksiyalarini asoslashga yo'naltirilgan, istiqbolli ko'rsatkichlarni hisoblash uchun qo'llaniladigan perspektiv tahlil; yuritilayotgan faoliyat davomida rejalashtirilgan vazifalar ijrosining ta'minlanish holatini nazorat qilish, foydalanilmagan, mavjud zaxira manbalarini aniqlash, joriy faoliyat natijalarini baholashda qo'llaniladigan retrospektiv tahlil; bir xo'jalik darajasida va xo'jaliklararo tahlil; moliyaviy jihatlar va natijalarga yo'naltirilgan moliyaviy-iqtisodiy, iqtisodiy va texnik jarayonlarning o'zaro va ularning korxona faoliyatiga ta'sirini o'rganishda foydalaniladigan texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning bog'liqligi, ularning korxona faoliyatiga ta'sirini ko'rsatib beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, iqtisodiy-ekologik, iqtisodiy-statistik tahlillarga farqlanuvchi boshqaruv obyektlari bo'yicha tahlil; o'rganish uslubiga ko'ra farqlanuvchi omilli, tashxisli, sabab-oqibatli, iqtisodiy-matematik, stoxastik tahlillar; tadqiq etilayotgan obyektlar qamroviga ko'ra farqlanuvchi uzluksiz va tanlanma tahlillar iqtisodiy tahlilning mezonlar bo'yicha ssenariysini hosil qiladi.

Maqolamizda turli mezonlarga ko'ra tahlil usullaridan foydalanildi, jumladan, tarmoq belgisiga ko'ra, moliyaviy-iqtisodiy, iqtisodiy-statistik, perspektiv va retrospektiv, omilli, iqtisodiy-matematik, stoxastik, umumiy va tanlanma tahlillar o'tkazildi. Yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlantirish makon va zamon xusu-

siyatlariga ko'ra turli rivojlanish omillariga ega. Bu rivojlantirish yo'nalishlari bilan bog'liq. Bizningcha, har qanday iqtisodiyot tarmog'i to'rt turdag'i rivojlanishga tayanadi, ya'ni rivojlanish mamlakatning o'ziga xosligi, ichki imkoniyati bilan bog'langan potensial; ilm-fan yutuqlari, sohaga tatbiq etilgan vositalari, texnik-texnologik tajribalariga asoslangan texnologik; insoniyatning keng tafakkuri, yangilik yaratish qobiliyati, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish faoliyatiga bog'langan innovatsion hamda ularning ma'lum bir algoritmlar, tamoyillari asosida umumlashgan sinergetik rivojlanish yo'nalishlari asosida amalga oshadi.

Bu rivojlanish yo'nalishlarini belgilash bir qator ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning kompleks qo'yilishini talab etib, yechimlarning optimal variantini tanlash chuqur ilmiy tahlillar, tadqiqotning turli usullari va ilmiy natijalariga asoslanadi. Obyekti yaxlit bir jihatdan iborat bo'lmasligi uning murakkablik xususiyatini belgilab beradi. Aholiga yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlarini rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatlarining mavjudligi obyektning murakkab tizimini hosil qiladi. Shu bilan birgalikda, bu tizimni to'liq, ya'ni tuzilmaviy, parametrik aniqlangan deb bo'lmaydi. Bunday holda soha rivojini tadqiq etishda modellashtirish nazariyasining, agar uning iqtisodiy obyekt ekanligi inobatga olinsa, u holda ekonometrik modellashtirish nazariyasi, usullari, yondashuvlarining ahamiyati ortib ketadi [18.19.20].


Bu kabi klassik modellar bugungi kunda yashash joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari tarmog'ini rivojlanishning zamonaviy nazariyasini shakllantirishda asosiy rolga ega bo'lmoqda.

**Tadqiqot metodikasi.** Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, eng kichik kvadratlar usuli, korrelyatsion va regression tahlil usullari qo'llanildi.

**Tahlili va natijalar.** Bajarilgan omilli yondashuv ma'lum bir tanlangan rivojlanish yo'nalishi bo'yicha tavsiflangan omillar to'plamiga e'tibor qaratish bilan cheklaniladi. Bunga sabab rivojlanish turiga xos ustuvor yo'nalishlarni mazkur to'plamga tegishli omillar ustuvorligi ta'minlangan ilmiy asoslar bilan belgilashning qulaylidir. Shunday bo'lsa-da, sohaning rivoji sinergetik xususiyatga ega bo'lib, bu yerda tadqiqot jarayoni oldingi, joriy davrlardagi muvaffaqiyatga erishilgan holatlarning barchasini inkor etmagan holda, faqat takomillashtiruv yo'nalishini tanlashi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shu ma'noda jarayonda omillar tanloving eng maq-

bul yechimi turli rivojlantirish yo'nalishlarida ustuvorlik maqomiga ega bo'lgan omillar ta'sirining sinergiyasini shakllantirishdir. Pirovardida sinergetik omillar to'plamini hosil qilish mumkin. Shuningdek, sohani rivojlantirishning real vaqt rejimida yoki ijtimoiy reallikda kechayotgan iqtisodiy jarayonlarning noaniq, yetarlicha murakkablik xususiyatini qamragan, nochiziqlilikka moyil, muvozanatlashmagan barcha o'zgaruvchilari kiritiladi. Bizningcha, dinamik jarayonda ta'

sir etish xususiyati saqlangan holda darajasi, miqdoriy o'lchovi o'zgaradigan barcha bir tizimga aloqador bo'lgan ichki va tashqi omillar to'plami ekonometrik tadqiqotlarning sinergetik omillar to'plami hisoblanadi. Mehmonxona va umumiy ovqatish xizmatlarini rivojlantirishning nazarriy asoslanishi bilan bog'liq o'rganishlarimiz natijasida sinergetik omillar to'plamini shakllantirishning quyidagi sxemasini taklif etamiz (1-rasm).



**1-rasm. Sinergetik omillar to'plamini shakllantirish sxemasi**

*Manba:* muallif ishlansasi.

Ustuvor omillarni aniqlash sifatida ko'rila-yotgan sinergetik omillar to'plamini tizimli tadqiq etishda eng samarali sifatida tarmoq belgisiga ko'ra tarmoqli tahlil, hamda vaqt belgisiga ko'ra farqlanuvchi perspektiv va retrospektiv tahlillari qo'llaniladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, tarmoqli tahlil iqtisodiyotning ma'lum bir tarmog'ining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib o'tkaziladi. Retrospektiv va prognozlashtirish tahlillari vaqt belgisiga ko'ra tahlil turi bo'lib, retrospektiv tahlil hududda sohaning rivojanish imkoniyatlarining tanlangan yo'nalishni rag'batlantiruvchi mavjud iqtisodiy salohiyatini baholashdan kelib chiqib, kengaytiruvchi xususiyatlarini aniqlashda, prognozlashtirish tahlillari esa rivojlantirish maqsadlarini asoslash uchun operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin o'tkaziladi.

**Xulosa va takliflar.** Umumiy holda, ekonometrik tadqiqotlarda soha (obyekt)ni miqdoriy tizimli o'rganish, ya'ni tizim elementlari orasidagi guruqli bog'liqliklarni qurish, ularning asosiy yoki qism natijaviylikka ta'sirini baholash, hosila-

viy ko'rsatkichlarning ahamiyatini yoritish, ta'sir etuvchi manbalarni aniqlash bo'yicha ekonometrik, rivojanish tendensiyasini o'rganish bo'yicha iqtisodiy-statistik tahlil usullari keng qo'llaniladi.

So'nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellar yordamida tadqiq etish ancha salmoqli bo'lmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda eng ko'p qo'llanilayotgan modellarni qurilish maqsadiga, tatbiq etilish ko'لامи va natijaviyligiga ko'ra uch turga ajratish maqsadga muvofiq. Bularga: 1) rivojlantirishning keng maydonlarida tatbiq etiluvchi, soha rivojining yangi yo'nalishlariga reaksiyasini aniqlash modellarini ishlab chiqishda birlashtirish xususiyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy elementlarning bog'langan, tarmoqlangan xossalarni tuzilmaviy ifodalovchi klassik modellar; 2) rivojlantirishning muayyan obyektga yo'naltirilgan, yaxlit tizimning yangi ko'rinishini, yoki uning mustaqil tarmog'ini tuzilmaviy-parametrik ifoda etuvchi rivojanuvchi modellar; 3) rivojlantirishning asosiy maqsadini amalga oshirish mexanizmi yoki uning bir qismi

sifatida ishtirok etuvchi, tizimning kirish kattaliklariga reaksiyasini aniqlab, voqelikning ilmiy asoslanishini ta'minlab beruvchi, miqdoriy ifodalarlangan modellar. Yashash joy va umumi ovqatlanish xizmatlari sohasini rivojlantirishning nazariy asoslanishida ushbu tur modellari rivojlantirish

xususiyatini kasb etadi. Sohani rivojlantirish nazariyasida 1-tur modellaridan foydalanish ko'p uchraydi. Buning asosiy sababi yashash joy va umumi ovqatlanish xizmatlari tarmog'ining ijtimoiy voqelikda sodir bo'lishi, inson ichki ruhiyati bilan bevosita bog'liqligidir.

### *Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:*

1. *Xiaobei Wang et al. (2022). Examining a client network development framework for a logistics service provider: A longitudinal case study. // Industrial Marketing Management. 102 (2022). 514-526.*
2. <https://www.sciencedirect.com/search?qs=service%20network%20development>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni 1-ilovasi. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son. // <https://lex.uz/docs/5841063>
4. "O'zbekiston Respublikasi hududida mehmonxona xizmati ko'rsatish tartibi to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2019-yil 26-martdag'i 03-mh-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 20.05.2019-y., 10/19/3160/3153-son.
5. Mattila A.S., Lin I.Y. Restaurant servicescape, service encounter, and perceived congruency on customers' emotions and satisfaction. *Journal of Hospitality Marketing & Management* (2010). 19(8), 819-841.
6. Komler Ф. Reinventing marketing to manage the environmental imperative. *Journal of Marketing* (2011). 75, 132-135.
7. Meek S., Wilk V. & Lambert C. (2021). A big data exploration of the informational and normative influences on the helpfulness of online restaurant reviews. *Journal of Business Research*, 125, 354-367.
8. Aliyeva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. – Т., 2007. – 335 b.
9. Mirzayev Q.D. va boshq. Umumi ovqatlanish xizmatlarini tashkil etishning muhim xususiyatlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. 3-son, 2017, 6-b.
10. QOMUSINFO: O'zbekiston onlayn ensiklopediyasi. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/umumiyo-vdqatlanish-uz/>
11. Алиева М.Т. Гостиничный менеджмент. Учебник. – Т., 2007. – 335 с.
12. Уокер Д.Р. Введение в гостеприимство. Учебное пособие. – М., 2002 г.
13. Комлер Ф., Боузэн Дж., Мейкенз Дж. Маркетинг. Гостеприимство. Туризм. Учебник. 2-е изд. перарраб. и доп. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 1063 стр.
14. Ochilov M.A., Juraev F.D., Maxmatqulov G.X. & Rahimov A.M. (2020). Analysis of important factors in checking the optimality of an indeterminate adjuster in a closed system. *Journal of Critical Review*, 7(15), 1679-1684.
15. Muxitdinov X.S., Rahimov A.M. Providing Accommodation and Food Services to the Population of the Region. // *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)* (e-ISSN: 2456-6470), Volume 1, Issue 1, mart. 26. 2021. Pages: 42-48, ISO 90012015 1121105553, IMPACT FACTOR-2021: 7.251. <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd38500.pdf>
16. Воронина И.Д., Егоров Е.А. Факторный подход к управлению развитием социальных систем регионального уровня. СЭН, 2013. Стр. 22-32. // <http://www.mathnet.ru/links/77d98bb7627e06dcf8d74502eb054bcf/ubs30.pdf>
17. Lemarie Ste., Marette Ste. (2022). The socio-economic factors affecting the emergence and impacts of new genomic techniques in agriculture: A scoping review, *Trends in Food Science & Technology*. // <https://doi.org/10.1016/j.tifs.2022.07.013>
18. Raximov A. Aholiga yashash joy va umumi ovqatlanish xizmatlari rivojida ichki va yondosh tarmoqlarning ta'sirini baholash (Qashqadaryo viloyati misolida). // Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 2022-yil, 397-402. // <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/613>
19. Maxmatkulov G'. (2022). Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirish salohiyatini baholashda trend modellarini tanlash mezonlari (Qashqadaryo viloyati misolida). // Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 381-386. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss4/a610](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss4/a610)
20. Maxmatqulov G'.X. Savdo xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishida raqamlashtirishning ahamiyati. // *Biznes-Ekspert*, 2021. 5 (161)-son. 36-41-b.